



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI  
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI

**QASHQADARYO VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKIOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA  
MA'LUMOT**



*2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



## KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 27 456 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 452 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 48 521 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 foizni tashkil etdi.

### Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

( 1- yanvar holatiga)

#### Ro'yxatdan o'tgan (birlikda)

48 521

2025

47 391

2024

44 323

2023

37 758

2022

31 117

2021

#### Faoliyat ko'rsatayotgan (birlikda)

2025

27 456

2024

33 064

2023

41 612

2022

36 168

2021


30 180

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar  
( 2024- yil yanvar-dekabr holatiga )**


2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 4 669 tani tashkil etdi.

Tarmoqlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichni yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 24 taga, axborot va aloqa – 7 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)**




(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 27 456 tani tashkil etib, ulardan 22 605 tasi tadbirdorlik subyektlardir.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,4 foiz, sanoat – 10,1 foiz, qurilish – 7,1 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,7 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,4 foiz, Kitob – 7,3 foiz, Yakkabog‘ – 6,8 foiz va Kosonda – 6,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

**Yillar kesimida soni (birlikda)****Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Qarshi sh.	5 689
Qarshi	2 039
Kitob	1 995
Yakkabog‘	1 875
Koson	1 845
Qamashi	1 701
Shahrisabz sh.	1 605
Chiroqchi	1 472
Shahrisabz	1 421
Nishon	1 348
G'uzor	1 324
Kasbi	1 260
Dehqonobod	1 123
Mirishkor	958
Muborak	922
Ko'kdala	879

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**

## (2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘limoqda. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 4 494 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 4 484 ta
- yirik korxonalar 10 tani tashkil etdi.

### Yillar kesimida soni (birlikda)

**4 494** 2024

2023 5 940

8 597 2022


2021 9 489

5 757 2020

### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	822
Qarshi	445
Koson	339
Kitob	294
Qamashi	281
Yakkabog‘	277
Shahrisabz sh.	256
Ko‘kdala	226
Nishon	224
G‘uzor	210
Shahrisabz	206
Kasbi	202
Chiroqchi	194
Mirishkor	189
Dehqonobod	166
Muborak	163

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 22 605 tani tashkil etdi, ulardan 22 452 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,4 foiz, sanoat – 12,2 foiz, qurilish – 8,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,6 foiz.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 374 tadan 398 taga (o‘sish 24 taga), axborot va aloqa 104 tadan 110 taga (o‘sish 6 taga) ko‘paydi.

**Yillar kesimida soni**

(birlikda)




**Hududlar kesimida soni**

(birlikda)



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni**

(birlikda)




(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (21,2 foiz), Qarshi (7,7 foiz), Kitob (7,4 foiz), Yakkabog' (6,8 foiz) va Koson (6,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar  
(2025- yil 1- yanvar holatiga)**

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (12,6 foiz), Nishon (10,7 foiz) va Kasbi (9,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.



**(2025- yil 1- yanvar holatiga)**


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 10,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 89,3 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,4 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Qarshi sh.	521
Kitob	352
Yakkabog'	242
Shahrisabz sh.	232
Shahrisabz	201
Qarshi	198
G'uzor	170
Koson	136
Chiroqchi	133
Qamashi	116
Kasbi	95
Nishon	91
Ko'kdala	85
Muborak	70
Mirishkor	68
Dehqonobod	61

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**(2025-yil 1-yanvar holatiga)**

O'zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 20,9 foiz ulushni tashkil etdi;



#### **Hududlar kesimida soni**

*(birlikda)*

Qarshi sh.	<b>589</b>
Qarshi	<b>220</b>
Koson	<b>174</b>
Yakkabog'	<b>106</b>
Chiroqchi	<b>102</b>
Shahrisabz sh.	<b>95</b>
Muborak	<b>85</b>
Kasbi	<b>83</b>
Kitob	<b>76</b>
Qamashi	<b>75</b>
Shahrisabz	<b>75</b>
G'uzor	<b>64</b>
Nishon	<b>57</b>
Dehqonobod	<b>53</b>
Mirishkor	<b>47</b>
Ko'kdala	<b>40</b>

#### **Yillar kesimida soni**

*(birlikda)*



Bino va  
inshootlar qurish

**1 129**



**407**

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Fuqarolik  
obyektlarini qurish

**405**



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 8 574 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 68,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 22,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**

Qarshi sh.	1 925
Qarshi	684
Koson	644
Chiroqchi	567
Shahrisabz sh.	539
Yakkabog'	525
Kitob	515
G'uzor	458
Qamashi	451
Nishon	391
Kasbi	361
Dehqonobod	345
Shahrisabz	332
Muborak	314
Ko'kdala	286
Mirishkor	268

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



5 908

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

1 941

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

756

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 506 taga yetib, ularning 1 495 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.

### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-yanvar holatiga)

2025-yil 1-yanvar holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 67,2 foizini;



Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,6 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,2 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Qarshi sh.	138
Chiroqchi	38
Qarshi	33
Shahrisabz sh.	22
G'uzor	20
Koson	18
Kitob	16
Kasbi	13
Yakkabog'	12
Qamashi	10
Nishon	8
Ko'kdala	7
Dehqonobod	6
Muborak	3
Mirishkor	2
Shahrisabz	2


**Yillar kesimida soni (birlikda)**



108

126


Aloqa



70

33

Axborot xizmati  
ko'ssatish  
sohasidagi faoliyati



10

1

Dasturlar yaratish bo'yicha  
faoliyat va teleko'rsatuv  
va radioeshittirish



(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 757 ta yoki 83,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,3 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,2 foizni tashkil etdi;


yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,2 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,5 foizini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



Sog'liqni saqlash  
sohasidagi  
faoliyat

729

Yashash uchun joy  
bilan ta'minlangan  
holda parvarishlash

17

Yashash uchun joy bilan  
ta'minlanmagan  
holda ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish

11

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

**Hududlar kesimida soni  
(birlikda)**


Qarshi sh.	262
Qarshi	68
Shahrisabz sh.	60
Koson	49
Yakkabog'	48
Kitob	44
G'uzor	42
Shahrisabz	38
Kasbi	33
Mirishkor	29
Chiroqchi	19
Dehqonobod	13
Nishon	13
Ko'kdala	13
Qamashi	11
Muborak	9

2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdag'i faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 79,8 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 16,5 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,6 foizni;
- havo transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot**

*(2025- yil 1- yanvar holatiga)*

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan  
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

**13 551**

**mas'uliyati cheklangan  
jamiyat**

**59,9**

**5 894**

**xususiy korxonalar**

**26,1**

**2 847**

**oilaviy korxonalar**

**12,6**

**35**

**aksiyadorlik jamiyat**

**0,2**

**278**

**boshqalar**


**1,2**

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

### Yillar kesimida soni

(birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	593
Koson	281
Qarshi	246
Yakkabog'	208
Qamashi	192
Mirishkor	179
Kasbi	176
Chiroqchi	146

G'uzor	132
Nishon	129
Muborak	128
Ko'kdala	117
Shahrisabz sh.	112
Kitob	103
Shahrisabz	87
Dehqonobod	57

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


Amaldagi 22 605 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- yanvar holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 13 531 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 35,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 20,7 foiz, qurilish – 10,8 foiz, sanoat – 10,3 foiz.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Qarshi sh.	3 267
Koson	1 125
Yakkabog'	1 016
Qamashi	965
Qarshi	954
Kasbi	787
Chiroqchi	725
Nishon	715


Kitob	653
Mirishkor	609
Shahrisabz sh.	586
G'uzor	545
Muborak	543
Shahrisabz	490
Ko'kdala	374
Dehqonobod	197

(2024- yil yanvar-dekabr holatiga)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Kitob	157
Qarshi sh.	127
Shahrisabz sh.	113
Qarshi	96
Dehqonobod	94
Shahrisabz	56
Nishon	47
Qamashi	33


Ko‘kdala	32
Yakkabog‘	29
G‘uzor	23
Kasbi	16
Koson	14
Chiroqchi	13
Muborak	10
Mirishkor	5

(2025- yil 1- yanvar holatiga)

2025- yil 1- yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Qarshi shahrida – 1 013 ta, Kitob – 782 ta va Shahrisabz shahrida – 587 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 664 ta, sanoat – 760 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 534 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 532 ta.

## Yillar kesimida soni

(birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	1 013
Kitob	782
Shahrisabz sh.	587
Dehqonobod	582
Yakkabog'	423
Qarshi	393
Shahrisabz	304
Nishon	302


Qamashi	278
Chiroqchi	278
Kasbi	224
Koson	208
G'uzor	187
Muborak	130
Mirishkor	102
Ko'kdala	101

## (2024- yil yanvar-dekabr holatiga)


Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	102
Qarshi	101
Ko‘kdala	77
Shahrisabz	61
G‘uzor	54
Qamashi	49
Nishon	48
Koson	43

Chiroqchi	35
Yakkabog‘	34
Kitob	33
Shahrisabz sh.	31
Muborak	25
Kasbi	10
Dehqonobod	9
Mirishkor	3


(2025- yil 1- yanvar holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2 847 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,4 foiz, sanoat – 19,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 16,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,2 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 15,9 foiz, Qarshi – 13,1 foiz va G'uzor tumanida – 11,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


## Yillar kesimida soni

(birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)

<b>Qarshi sh.</b>	<b>453</b>
<b>Qarshi</b>	<b>373</b>
<b>G'uzor</b>	<b>324</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>311</b>
<b>Kitob</b>	<b>211</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>180</b>
<b>Ko'kdala</b>	<b>170</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>152</b>

<b>Koson</b>	<b>143</b>
<b>Qamashi</b>	<b>131</b>
<b>Nishon</b>	<b>111</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>93</b>
<b>Muborak</b>	<b>78</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>48</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>45</b>
<b>Kasbi</b>	<b>24</b>

(2025- yil 1- yanvar holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Koson (15,0 foiz), Mirishkor (9,3 foiz) va Qarshi (8,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Koson	1 959
Mirishkor	1 213
Qarshi	1 111
Kitob	1 073
Nishon	1 023
Ko'kdala	986
Yakkabog'	956
Shahrisabz	836
Chiroqchi	811
Kasbi	765
Qamashi	703
G'uzor	640
Muborak	511
Dehqonobod	492
Shahrisabz Sh.	12

## Yillar kesimida soni (birlikda)



12 982 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash va akvakultura

108



O'rmonchilik va yog'och tayyорлаш

1




**Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar  
(2025-yil 1-yanvar holatiga)**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 140 ta korxonalardan 79 tasi qo'shma korxonalar va 61 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

**Yillar kesimida soni  
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni  
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Qarshi sh.	33
Muborak	13
G'uzor	12
Nishon	11
Koson	9
Chiroqchi	9
Qarshi	8
Kitob	8

Dehqonobod	7
Kasbi	6
Yakkabog'	6
Qamashi	5
Mirishkor	5
Shahrisabz	4
Ko'kdala	2
Shahrisabz sh.	2

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirdorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 29 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 20,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 17,3 foiz), Turkiya (ulushi 9,4 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,5 foiz) va Qozog'iston (ulushi 2,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2025- yil 1- yanvar holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Qarshi shahriga 23,6 foiz, tumanlar orasida esa Muborak – 9,3 foiz, G'uzor – 8,6 foiz va Nishonga – 7,9 foiz to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- yanvar holatiga)



**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- yanvar** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining [www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz) rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



**Statistik registrlarni  
yuritish bo‘limi**  
Tel.:(75) 221-17-93